

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

“MENEJMENT” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK:338.33(338.24)

ABDUMAJIDOVA SHOXIDAXON OLIMJON QIZI

**SIFAT MENEJMENTI TIZIMIDA TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISHNI
RIVOJLANTIRISH**

**70411201 – Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:


Katta o‘qituvchi PhD G.B.Shanazarova

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Menejment" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

1.-sonli bayonnoma "25" aprel 2023 y.

Kafedra mudiri: Yuldoshev N.Q.


imzo

12.05.2023
sana

Ilmiy rahbar: Shanazarova G.B.


imzo

sana

Talaba: Abdumajidova Sh.O.


imzo

sana

ANNOTATSIYA

Magistrlik dissertatsiyasi tikuv-trikotaj korxonalarida sifat menejmenti tizimida tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish muammosiga qaratilgan bo'lib, tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirishda sifat menejmentining ilmiy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Tikuv-trikotaj korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishning iqtisodiy mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar hamda tejamkor ishlab chiqarishni va sifatni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimining xususiyatlari asoslangan. Resurs tejamkorlikni ta'minlashda sifat menejmenti metodologiyasi tadqiq etilgan.

“CLASS TEX PRODUCTION” MChJ korxonasida ishlab chiqarishni tashkil etish holati, hamda asosiy te'nik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, shuningdek “CLASS TEX PRODUCTION” MChJ korxonasida tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirishda xalqaoro standartlarning sifatga ta'sir etish xolati taxlil qilingan.

Magistrlik dissertatsiyasida tikuv-trikotaj korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirishda sifat menejmenti tizimi samaradorligini oshirish oshirish, xususan tejamkor ishlab chiqarishda sifat menejmenti mexanizmini rivojlantirish yullari, sifat menejmenti tizimini tatbiq etishning asosiy bosqichlari hamda tikuv-trikotaj korxonalarida ishlab chiqarishni tejamkor tashkil etish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. *Tizim, muhit, maqsad, dastur, Total Quality Management, Statistical Quality Control, Sifat menejmenti tizimi, resurstejamkorlik, moddiy resurs, texnikaviy resurs, mehnat resurlari, xomashyo, samara, foyda, xomashyo sarfi, ishlab chiqarish, mahsulot.*

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	6
Keltirilgan qisqartmalar	7
I BOB. KIRISH	8
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	8
1.2. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari	9
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	10
1.4. Tadqiqotning ob'ekti va predmeti	12
1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	12
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	14
2.1. Sifat menejmenti tizimining ilmiy asoslari	14
2.2. Resurs tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishning nazariy masalalari	22
III BOB. METODOLOGIYA	30
3.1. Tejamkor ishlab chiqarishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimining xususiyatlari	30
3.2. Resurs tejamkorlikni ta'minlashda sifat menejmenti metodologiyasi	37
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	48
4.1. "CLASS TEX PRODUCTION" MChJ korxonasiining asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili	48
4.2. Korxonada xom-ashyo va mehnat resurslaridan unumli foydalanishning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirining tahlili	54
V BOB. XULOSA	68
5.1. Tejamkor ishlab chiqarishda sifat menejmenti mexanizmini rivojlantirish yo'llari	68
5.2. Sifat menejmenti tizimini tatbiq etishning asosiy bosqichlari	72
Foydalanilgan adabiyotlar	85
Ilovalar	95

I BOB. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

O'zgaruvchan bozor talablari sharoitida ishlab chikarish korxonalarida oldida turgan eng asosiy vazifa-rakobatbardosh mahsulot ishlab chikarishdir. Shuning uchun xam maxsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash bugungi kunning muxim masalalaridan hisoblanadi. Maxsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash strategik muammo bulib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi bu muammolarning xal etishiga boglikdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki xizmatlar kursatishda faqatgina ko'prok foyda olish uchungina emas, balki jamiyat uchun, uning ravnaki uchun xam zarurdir.

Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo'lishi zarur.

Ayni shunday yangicha qarash va harakatlar butun faoliyatimizning negizini tashkil etishi shart. Shu borada ichki imkoniyat va zaxiralarimizni ishga solishning eng muhim yo'nalishi bizning zaminimizdagi boy mineral xomashyo va o'simlik dunyosi resurslarini chuqur qayta ishlashni bosqichma-bosqich oshirib borish, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirishdan iborat bo'lishi kerak.

Boshqacha aytganda, xomashyoni jahon bozorida talab katta bo'lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o'tishimiz zarur. Bu tizimning ma'no-mohiyati shundan iboratki, u birinchi bosqichda xomashyoni dastlabki qayta ishlash, ya'ni yarim fabrikatlar tayyorlash, keyingi bosqichda sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor materiallarga aylantirish, uchinchi, yakuniy bosqichda esa iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Tikuv-trikotaj sanoat mahsulotlari sifatini yaxshilash strategik muammo bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi bu muammolarning hal